

# Bolalar Muqaddas Kitobi

## Tasvirlab beradi



## Cho'ponga aylangan shaxzoda



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes  
...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
M. Maillot; Lazarus  
...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
E. Frischbutter; Sarah S; Alastair P.  
...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children  
[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

BFC  
PO Box 3  
Winnipeg, MB R3C 2G1  
Canada

©2021 Bible for Children, Inc.

Lisensiya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.


1



Bir kuni Muso Misrlik odam Ibroniylar xizmatkorni urayotganini ko'rib qoldi. U xizmatkorga yordam berishi xohladi. Muso aslida Ibroniylar edi, ammo u Fira'v'n xonadonida o'sib, tarbiya olgandi.

2

Muso atrofda hech kim yo'qligini ko'rib, urayotgan odamga tashlandi. Kurashda Muso Misrlikni o'ldirib qo'ydi. So'ng tezda uni ko'mdi.




3

Boshqa kuni Muso ikki Ibroniylar urishayotganini ko'rib, ularni to'xtatmoqchi bo'ldi. Ibroniylardan biri: "Sen meni xuddi Misrlikni oldirgandek o'ldirasanmi?" - dedi. Muso qo'rqib ketdi. Qilgan ishini hamma bilardi. Shuning uchun u Midiyon nomli joyga qochib ketdi.



4

Muso quduq yonida dam olayotgan edi. Midiyon oliyruhaniysini ettita qizi suv olish uchun quduq yoniga kelishdi. Ular otasining podasiga suv berishi kerak edi.



5

Ammo boshqa cho'ponlar ularni itarib tahlashdi. Shunda Muso qizlarga yordam berdi.



6

Qizlarning otasi Yatro ular nima uchun uyga vaqtli qaytganini so'radi. Qizlar nima bo'lganini aytib berdi. Shunda Yatro: "Sizga yordam bergan odamni uyga olib kelinglar," - dedi.



7

Muso Yatroning uyida yashashni boshladi. Keyin uning katta qiziga uylandi.

Misrda esa Fira'vn vafot etgandi. Xudoning xalqi bo'lgan Ibroniylar hamon Misr qulligida edi. Ular judayam azob chekardi



8

va Xudodan yordam sor'ashardi. Xudo ularning ibodatini eshitdi.


Xudo Ibroniylarni ozod qilish uchun Musoni ishlatmoqchi edi. Ammo Muso bundan bexabar edi. Muso Misrdan ketganiga qirq yil bo'lgandi. U Yatroning podasini boqib yurardi.




Bir kuni Muso yonidagi butada olov yonayotganini ko'rdi. Lekin butaning o'zi yonmasdi. Shunda u nima uchun buta yonmayotganiga qiziqdi.



Muso butaning yoniga kelganda, Xudo uni chaqirdi. U: "Men shu erdaman!" -deb javob berdi. "Butaga juda yaqin borma," -dedi Xudovand. Yana Xudo: "Oyoq kiyimingni ech, chunki sen turgan joy muqaddas!" -dedi.



"Mening odamlarimni ozod qilish uchun seni Fira'vn yoniga yuboraman!" -dedi Xudo. Lekin Muso Misrga borishga qo'rqardi.



Shunda Xudo Musoga Qudratli Kuchini ko'rsatdi. U Musoni hassasini ilonga aylantirdi.



Muso ilonni ushlaganida, u qaytib hassaga aylanib qoldi. Xudovand yana Qudratini ko'rsatdi.



U Musoga: "Qo'lingni ko'ylaging ichiga tiq," - dedi. Muso buni qilganda, uning qo'lga yara toshib, oppoq bo'lib qoldi.




15

Yan bir bor qo'lini ko'ylagini ichiga tiqqanda, tuzalib qoldi.



16

Ammo Muso hamon qarshilik bildirardi. U: "Men yaxshi gapirolmayman," -dedi. Shunda Xudo: "Akang Horun sening o'rningga gapiradi, sen unga nima deyishni aytib turasan," -dedi.




17

Muso Yatroniciga qaytib bordi. So'ng Misrga ketdi.



18

Xudo Musoni akasi Horun bilan tog'da uchrashtirdi. Muso akasiga hamma narsani so'zlab berdi. Ular birga Ibroniya etakchilariga borishdi. Muso ularga Xudoning Qudratini ko'rsatganda, Xudo ularga yordam berishiga ishonishdi. Hammasi birgalikda Xudoga hamdu sano aytishdi.



19

Muso va Horun Fira'vni yoniga borib, unga: "Xudo Uning odamlarini ozod qilish kerakligini aytdi," -deyishdi.



20

Fira'vn esa: "Ularni qo'yib yubormayman!" -dedi. U Xudoga itoat etmadi. Xudo Fira'vnni fikrini o'zgartirish uchun

Qudratini ko'rstadi.



21

Cho'ponga aylangan shaxzoda

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Chiqish 2-5

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130

22

Hikoya tugadi

10



60

23

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdi ki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!  
Yuhanno 3:16

24